



11. Пыркова Т. А. Формирование лингвистической компетенции студентов неязыкового вуза средствами театрализации: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук 2018. // URL: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/72394/1/urfu2003_d.pdf
12. С.А.Мисиров Касб-хунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари. пед ф.ф.д. (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент: 2007. – 22 б.
13. Соловьева, И. А. Приемы театральной педагогики в обучении общению на английском языке / И. А. Соловьева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — № 16 (120). — С. 382-384. 2016. // URL: <https://moluch.ru/archive/120/33242/>
14. Фильченкова А. Д., Толстенева А. А. Исторический аспект развития школьных театров // Вестник Минского университета Том 11, № 2 (2023) // URL: <https://www.minin-vestnik.ru/jour/article/view/1418>
15. Хамидова Н.Ж. Техника йўналиши талабаларига ахборот технологиялари ёрдамида инглиз тилини ўқитишнинг самарали усуллари пед ф.ф.д. (PhD) дисс. автореферати. – Чирчик: - 2021. – 46 б.;
16. Холден С. Драма в преподавании языка. Харлоу, 17 стр. 1981.

MADANIYATLARARO MULOQOTDA STEREOPTIPLAR VA NOTO'G'RI TUSHUNISH SABABLARI

Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Turizm kafedrasida dotsenti v.b.

Email: ochilovaxursanoy26@gmail.com

Narpulatova Rushana Serik qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyot
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Email: rushananarpulatova@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqola hozirda mamlakatlararo bo'layotgan stereotiplar va noto'g'ri tushunish sabablarini ochib berishga qaratilgan. Budungi kunda insonlarning muloqot darajasi kiunda-kunga rivojlanib borishi tufayli insonlar o'rtasida turi xil tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda, jumladan insonlar turli xil vakillarga masub bo'lib, ular o'zaro madaniyatda ya'ni bir-birlarining muloqotlarining ayrim jihatlari noto'g'ri talqin etish orqali ularning shaxslararo munosabatiga ta'sir qilmoqda. Muloqot samaradorligi tobora ko'proq shaxslarning madaniy ongi, qadriyatlari va dunyoqarashiga bog'liq bo'lib bormoqda. Maqolada stereotiplarni shakllantiruvchi omillar, ularning shaxslararo munosabatlarga ta'siri va noto'g'ri talqinlarga olib keladigan lingvistik va madaniy farqlar o'rganiladi. Muammolarni hal qilishda madaniyatlararo kompetensiya, empatiya va ochiq fikrlashni rivojlantirishning muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, stereotip, noto'g'ri tushunish, madaniyatlararo kompetensiya, muloqot

CAUSES OF STEREOTYPES AND MISUNDERSTANDINGS IN INTERCULTURAL COMMUNICATION

Ochilova Khursanoy Makhmud qizi

Chirchik State Pedagogical University

Associate Professor of the Department of Tourism, Faculty of Tourism

Email: ochilovaxursanoy26@gmail.com

Narpulatova Rushana Serik qizi

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Tourism

2nd year student, Foreign Language and Literature

Email: rushananarpulatova@gmail.com

Abstract: This article aims to reveal the causes of stereotypes and misunderstandings that currently exist between countries. Due to the increasing level of communication between people, various misunderstandings arise between people, including people who are different in culture, which affects their



interpersonal relationships by misinterpreting certain aspects of each other's communication. The effectiveness of communication is increasingly dependent on the cultural awareness, values, and worldview of individuals. The article examines the factors that form stereotypes, their impact on interpersonal relationships, and the linguistic and cultural differences that lead to misunderstandings. The importance of developing intercultural competence, empathy, and open-mindedness in solving problems is emphasized.

Keywords: intercultural communication, stereotype, misunderstanding, intercultural competence, communication

ПРИЧИНЫ СТЕРЕОТИПОВ И НЕДОПОНИМАНИЯ В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Очилова Хурсаной Махмуд кызы

Чирчикский государственный педагогический университет

Доцент кафедры туризма, факультет туризма

Email: ochilovaxursanoy26@gmail.com

Нарпулатова Рушана Серик кызы

Чирчикский государственный педагогический университет

Факультет туризма

Студентка 2 курса, факультет иностранных языков и литературы

Email: rushananarpulatova@gmail.com

Аннотация: Цель данной статьи – раскрыть причины возникновения стереотипов и недопонимания, существующих в настоящее время между странами. В связи с ростом уровня общения между людьми, в том числе между представителями разных культур, возникают различные недопонимания, что влияет на межличностные отношения, приводя к неверному толкованию отдельных аспектов общения друг друга. Эффективность коммуникации всё больше зависит от культурной осведомлённости, ценностей и мировоззрения людей. В статье рассматриваются факторы, формирующие стереотипы, их влияние на межличностные отношения, а также языковые и культурные различия, приводящие к недопониманию. Подчёркивается важность развития межкультурной компетентности, эмпатии и открытости для решения проблем.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, стереотип, недопонимание, межкультурная компетентность, коммуникация

Glaballashuv davrida yashayotgan ekanmiz, kundalik hayotimizda turli din, millat va mamlakat vakillar bilan muloqotda bo'lishimiz bizning ajralmas qismimizga aylanib bormoqda. Biroq shu bialn nirgalikda bu bizning nafaqat rivojlanishimiz, balki turli xil muammolarga duch kelishimizga ham sababchi bo'lmoqda. Bunga madaniyatlararo muloqotda stereoptiplar va noto'g'ri tushunish misol bo'la oladi.

Madaniyatlararo muloqot - turli madaniyat vakillari o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotning samarasi va muvaffaqiyati faqatgina turli madaniyatlar va tillarni biluvchisi bo'lgan kommunikatorlarning har biri "turlicha" ekanliklari va har biri muqobil ravishda "begona" suhbatdoshlarini anglab yetganda sodir bo'ladi. Boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishish tarjima va tarjimonning professional muloqot sohasidagi eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir. [1]

Stereotipl (yunoncha stereos – qattiq, typos – iz) tushunchasi 1922 yilda —Ommaviy fikrl kitobi muallifi amerikalik sotsiolog U.Lippman tomonidan taklif qilingan. Lippmanning fikriga ko'ra, stereotip "atrofdagi dunyoni idrok etishning maxsus shakli bo'lib, bu ma'lumotlar bizning ongimizga etib borgunga qadar bizning hislarimiz ma'lumotlariga ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi".[2]

Stereotip - bu ma'lum bir guruh odamlari yoki narsalar haqidagi haddan tashqari umumlashtirilgan va odatda qattiq, soddalashtirilgan fikr yoki tasvir. Bu qolipga solingan, barqaror qarash bo'lib, ko'pincha tasavvurga asoslanadi va har bir shaxsni alohida emas, balki butun guruhga nisbatan qo'llaniladi, bu esa noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

5. **Umumlashtirish:** Stereotiplar ma'lum bir guruhdagi barcha odamlarga birdek taalluqli bo'lgan umumiy qoidalarni yaratadi.

6. **Qolipga solish:** Ular odamlarni yoki narsalarni bitta qolipga soladi, ularning o'ziga xosligini inkor etadi.



7. **Barqarorlik:** Bu fikrlar odatda o'zgarishi qiyin bo'lib, ko'pincha uzoq vaqt saqlanib qoladi.
8. **Salbiy va ijobiy:** Stereotiplar salbiy (g'alati, nafrat, nohaqlik, qattiqqo'llik) yoki ijobiy (qiziqarli, yaxshi, qulay) bo'lishi mumkin. Biroq, ularni sug'urta va oldindan qilingan hukmdan farqlovchi muhim narsa shundaki, stereotiplar xato bo'lishi mumkin.
9. **Amaliy ahamiyati:** Tez qaror qabul qilishda stereotiplar foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, shaxsiy munosabatlarda ular noto'g'ri va xatolarga yo'l ochishi mumkin. [3]
- Stereotiplarning shakllanishi va ularning xususiyatlari. Stereotiplar ijtimoiy tarbiya, tajriba, ommaviy vositalar va shu bilan birgalikda tarixiy voqealar orqali yuzaga keladi. Bular orqasi odamlarga dunyoni tezroq "tushunish" imkonini beruvchi kognitiv qisqa yo'l (ya'ni, fikrlashdagi soddalashtirish) deb qaraladi. Biroq, bu soddalashtirish ko'p vaqtlarda noto'g'ri umumlashtirishga omil bo'lib yuzaga keladi.
- Misol uchun, ba'zi madaniyatlar "tinch va muloyim", boshqalari esa "ochiq va faol" deb ta'riflanadi. Bujarayon real hayotdagi turfa xillikni e'tiborsiz qoldiradi. Natijada esa odamlar bir-birlarini stereotiplar asosida baholaydilar va individual xususiyatlarni e'tiborsiz qoldiradilar. Stereotiplarning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:
- ❖ O'rtacha umumlashtirish: butun millat yoki guruhni bir xil deb tasavvur qilish;
 - ❖ Soddalashtirish: murakkab madaniy xususiyatlarni bir qancha so'zlar yordamida ifodalash;
 - ❖ Barqarorlik: stereotip shakllangandan so'ng, uni o'zgartirish qiyin bo'lishi;
 - ❖ Subyektivlik: stereotip ko'pincha hollarda shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga asoslanhgan holda bo'ladi.
- Noto'g'ri tushunishning sabablari. Madaniyatlararo noto'g'ri tushunish sabablari bir necha omillar orqali yuzaga kelgan bo'ladi, bular quyidagilardan iborat:
1. **Til farqlari.** Sozlarning xilma-xilligi, iboralar, lug'atlar, hatti harakatlar, imo-ishoralar orqali biror bir boshqa millat vakili boshqa xalq vakilini noto'g'ri tushunishi mumkin, ya'ni biror imo-ishora boshqa xalq vakillarida boshqacha vaziyatlarda ishlatilishi mumkin, masalan biror imo-ishora bir xalq vakillarida ijoboy tushunilsa, boshqalarida salbiy bo'lishi mumkin.
 2. Muloqot uslublaridagi farqlar. Ba'zi mamlakatlarda muloqot jarayoni to'g'ridan-to'g'ri olib borilsa bu yaxshi va normal deb qabul qilinadi, lekin boshqa xalq vakillari muloqotni boshqacha yo'l bilan olib borilgan to'g'ri deb biladi, masalan bilvosita va muloyim. Bu farq noto'g'ri talqinlarga olib kelish extimoli mavjud.
 3. **Etnotsentrizm.** Bunda insonlar o'z madaniyatini to'ri deb baholashadi va boshqalarda ham to'ri deb yuritish orqali turli xil muammolar yuzaga keladi va muloqotda adolatsizlikka olib keladi.
 4. **Stereotiplarga asoslangan fikrlash.** Agar kimdir boshqa madaniyatga mansub odam haqida oldindan o'ylangan tasavvurga ega bo'lsa, u muloqotda shu nuqtai nazardan fikrlaydi. Natijada, ular odamning asl niyatlarini noto'g'ri talqin qilishadi.
 5. **So'zsiz (neverbal) muloqot farqlari.** Imo-ishoralar, pozalar, tana tili, ko'z bilan aloqa va vaqt kabi belgilar turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, bir madaniyatda ko'z bilan aloqa qilish hurmat belgisi hisoblanadi, boshqasida esa qo'pollik hisoblanadi. [4]
- Stereotip va noto'g'ri tushunishlarning muloqotga ta'siri. Stereotiplar va noto'g'ri tushunishlar sababli turli xil muammolarga duch keladi va bular:
- ❖ Insonlar o'rtasida o'zaro ishonchni susayishiga sabab bo'ladi;
 - ❖ Muloqotda qo'polliklik, tushunmovchilik va ba'zi vaqtlarda tushunmovchilik keltirib chiqaradi
 - ❖ Hamkorlik, ta'lim, diplomatiya yoki biznes jarayonlarida muammolarga sabab bo'ladi;
 - ❖ Madaniyatlar o'rtasida masofa va ajralishni kuchaytiradi. [5]
- Shuning sababli, madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatga erishish uchun odamlar keng dunyoqarashga, bag'rikenglikka va madaniy sezgirlikka ega bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. <https://interonconf.org/index.php/ind/article/download/3789/3390/3335>
2. <https://interonconf.org/index.php/sues/article/download/5851/5099/4988>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Stereotip>
4. Samovar, L. A., Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2017). *Communication Between Cultures* (9th ed.). Boston: Cengage Learning.
5. Gudykunst, W. B. (2004). *Bridging Differences: Effective Intergroup Communication* (4th ed.). Thousand Oaks, CA: Sage Publications.



6. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(3), 607-613.
7. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI. *MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI*, 1(1), 98-102.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA JOZIBALI VA SIFATLI DARS O‘TISHNING YANGI TUTUM VA USULLARI

B.X. Daniyarov,

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: bxdaniyarov@gmail.com тел.: (97)-411-54-67

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar davrida yangi fanlarni o‘qitishning yangi prinsip va usullari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, akademik yozuv fanini sifatli va samarali o‘qitish, ilmiy va ilmiy-publitsistik matnlarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri bayon qilish masalalari zamonaviy kompleks metodika asosida tahlil qilinib, yechimi bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mantiqiy izchil, ixcham, qiziqarli ta’sirchan; aniq, sodda va ravon, tushunarli va oson; ilmiy uslub - bor asos, dalil isbot – bari rost; angla, anglat – aniq maqsad. yangi fanlarni o‘qitishning yangi prinsip va usullari, tutum – sof o‘zbekcha so‘z, prinsip atamasining o‘zbekchasi - tutum, tamoyil – tendensiya so‘zining o‘zbekchasi. Qofiyali qoidalar.

NEW PRINCIPLES AND METHODS OF TEACHING DISCIPLINES IN THE DIGITAL AGE

B.Kh. Daniyarov,

Doctor of Philological Sciences, Professor at the Tashkent University of Economics and Pedagogics
e-mail: bxdaniyarov@gmail.com тел.: (97)-411-54-67

Annotation. This article discusses new principles and methods of teaching new disciplines in the digital technology era. In particular, it analyzes the issues of high-quality and effective teaching of academic writing, the correct presentation of scientific and popular scientific texts in oral and written speech based on a modern comprehensive methodology, and provides specific recommendations for their solution.

Keywords: Logically consistent, concise, interesting, impactful; precise, simple and fluent, understandable and easy; scientific style — justification, evidence — all true; understand, explain — clear goal. new principles and methods of teaching new disciplines, “tutum” — a purely Uzbek word, the Uzbek equivalent of the term “principle” is “tutum,” “tamoyil” — the Uzbek equivalent of the word “tendency.” Rhymed rules.

НОВЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИН В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Б.Х. Данияров,

доктор филологических наук, профессор Ташкентского университета экономики и педагогики
e-mail: bxdaniyarov@gmail.com тел.: (97)-411-54-67

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые принципы и методы преподавания новых дисциплин в эпоху цифровых технологий. В частности, анализируются вопросы качественного и эффективного преподавания академического письма, правильного изложения научных и научно-публицистических текстов в устной и письменной речи на основе современной комплексной методики, а также даются конкретные рекомендации по их решению.

Ключевые слова: логически последовательный, краткий, интересный и выразительный; точный, простой и плавный, понятный и лёгкий; научный стиль — есть основа, доказательство, факты, всё истинно; осмысли и разъясни — сформулируй чёткую цель. Новые принципы и методы